



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mustafayev Shomurod Normuminovich¹ —

pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori, SamDU katta o'qituvchisi

E-mail: shomurodmustafayev@mail.ru,

tel: 93 723 20 12

BADIY FAOLIYAT VA ARTPEDAGOGIKANING TARBIYAVIY RESURSLARI

Annotasiya: Artpedagogika – yoshlarning qiziqishlari asosida tashkil etiladigan ta'lim tarbiya jarayoni bo'lib, ular yoshlarning bo'sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalg etish, ma'naviy, g'oyaviy-estetik, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, badiiy kommunikatsiya, badiiy ijtimoiylashtirish, o'z iqtidorini namoyon qilish, rivojlantirish, qiziqtirish, tarbiyalash kabi funksional imkoniyatlarga ega.

Tayanch so'zlar: Artpedagogika, g'oyaviy-estetik, estetik taassurot, badiiy kommunikatsiya, badiiy ijtimoiylashtirish, "Debyut", badiiy faoliyat, suggestiv, mimika.

ОБРАЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И АРТПЕДАГОГИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ

Аннотация: Художественная педагогика - образовательный процесс, основанный на интересах молодежи. В него входят такие функциональные



возможности, как целенаправленная организация досуга молодежи, вовлечение в активные общественные отношения, формирование духовного, идейно-эстетического, научного мировоззрения, художественное общение, художественная социализация, проявление своих талантов, развитие, интерес, воспитание.

Ключевые слова: артпедагогика, идейно-эстетическое, эстетическое впечатление, художественное общение, художественная социализация, «Дебют», художественная деятельность, суггестивность, мимикрия.

EDUCATION OF ARTISTIC ACTIVITY AND ARTPEDAGOGY RESOURCES

Abstract: Art pedagogy is an educational process based on the interests of young people. It includes such functional capabilities as the purposeful organization of youth leisure, involvement in active social relations, the formation of a spiritual, ideological and aesthetic, scientific worldview, artistic communication, artistic socialization, the manifestation of their talents, development, interest, education.

Keywords: art pedagogy, ideological and aesthetic, aesthetic impression, artistic communication, artistic socialization, “Debut”, artistic activity, suggestiveness, mimicry.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarni ma’naviy-axloqiy, jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida olib borilgan islohotlar natijasida yoshlar o’rtasida xalqimiz ma’naviyati, milliy qadriyatlarini targ‘iboti uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, g‘oyaviy-estetik tarbiyalashdasan’at va pedagogika imkoniyatlari, texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash”ning [1;6] ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada “ommaviy madaniyat”ning turlariga qarshi



kurashish mexanizmlarini rivojlantirish, yoshlarni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon artpedagogik tizimlari shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integrasiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Globallashuv sharoitida artpedagogikaning yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, g‘oyaviy-estetik immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarning “Pop-art”, “Pop-musiqa”, “Kitch”, “Starizm” kabi deviantlik holatlarni oldini olishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa shaxsni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog‘lomashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, madaniyat va san’at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishda oqsoqlikka yo‘l qo‘yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san’at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarini hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarni to‘liq bajarish imkonini bermayapti. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagi o‘rnini va

ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadiga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Artpedagogikaning tarixiy negizlariga, badiiy tarbiya an'analari, san'atning o'ziga xos nafis xususiyatlari, mazmun, shakl va tarbiyaviy imkoniyatlariga qiziqish qadimdan mavjud bo'lgan. Mazkur sohada buyuk ajdodlarimizdan Abu Nasr Forobi, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, shoir va mutafakkirlardan Kaykovus, Abdurahmon Sa'diy, Fitrat, Muhiddin qori Yoqubov, Shokir Sulaymon, Rajabzoda va boshqalar o'z asarlarida tarbiya va nafosat birligi haqidagi fikrlarni ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekiston pedagog olimlari M.Abdujabbarova, Z.Asimova, Ye.Balabekov, X.Ibragimov, M.Ismoilova, D.Kenjayeva, H.Nurmatov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, Sh.Rayemov, S.Romanova, D.Ro'ziyeva, N.Saidaxmedov, B.Umarov, S.Fayzullina, M.Quronov, Q.Quronboyev, S.Yuldasheva, Z.Qosimova, G.Maxmutova, B.Shermuhammadov, N.Shodihev, Sh.Qurbanov, A.Hasanov va boshqalarning tadqiqotlarida yoshlarni milliy, ma'naviy, axloqiy, badiiy, estetik tarbiyalash hamda pedagogik texnologiyalarning turli masalalari tadqiq qilingan.

Globallashuv, "ommaviy madaniyat"ning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri xorijlik olimlar Ortega-i-Gasset, U.P.Smolskaya, D.Bell, P.Dj.Byukenen, V.I.Zayas, A.Ya.Fliyer, T.A.Fetisova, V.P.Rudnev, V.P.Shestakov, K.T.Teplis, Ye.N.Shaginskaya, O.Xaksli va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan quyidagi vazifalar ijro uchun qabul qilindi: madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrler faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish; madaniyat va san'at



muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati, moddiy-texnik bazasi holatini atroflicha o‘rganish, ularni ta’mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta’minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O‘zbek milliy raqs va xoreografiya san’atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san’at rivojiga katta hissa qo‘shtigan taniqli san’atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko‘rik-tanlovlarda yuqori o‘rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo’llab-quvvatlash; yoshlarni san’at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o‘zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog‘lari hududida “Nuroniyalar maskan”larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish; “Seni kuylaymiz, zamondosh!”, “Debyut” kabi teatr san’ati ko‘rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahma asarlarini yaratish. “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivali, “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali, “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayllarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyoohlarni keng jalb etish; madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo’llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash; O‘zbekistonning yuksak madaniyati va san’atini xalqaro maydonda yanada keng targ‘ib etish, xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san’at



namoyandalari keng qatnashishlarini ta'minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish ko'zda tutildi.

Tadqiqot metodologiyasi(Research Methodology). Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida yoshlarni tarbiyalash falsafasi, metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish, uni obyektiv baholashning artpedagogik mezon va darajalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar san'at turlarining mohiyatini "hayotni aks ettirish", "bunyodkorlik", "bilim berish", "baholash", "mafcura", "o'yin", "o'zlikni ifodalash", "muloqot", "qadriyatlar tili" kabi san'at konsepsiyanining metodologik tahlili, san'at turlari mohiyatini definisiyalash, yoshlarning mafkuraviy sog'lomlik darajasini oshirish muammolarini o'z ichiga olib, xalqaro miqyosda yoshlarni g'oyaviy-estetik tarbiyalashning yangi modellarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" O'RQ-406сон Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagи PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 31-maydagи "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 28-iyuldagи "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli, 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda artpedagogikani rivojlantirish bilan bevosita va bilvosita bog'liq vazifalarni amalga oshirish belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiysi va 2019–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni

yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda 2019–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan: madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani, ushbu sohadagi institusional tizimni va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish; tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrabavaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash; aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish; madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovasion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish; fuqarolarning, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtiroy etishi va madaniy xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy tengligini ta'minlash; madaniy sohada o'zaro samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratish; qabul qilinayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasiga oid qarorlarning ushbu sohadagi yagona davlat siyosatiga mosligini ta'minlash; madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlari negizida madaniyat markazlari tashkil etilishi artpedagogikani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Chunki madaniyat markazlarining asosiy vazifalari etib: aholi, yoshlarga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy



ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish; xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish; yoshlarni to'garaklarga jalgan etish, xorijiy tillarni o'rghanish va "nutq madaniyati" bo'yicha kurslarni tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish; adabiyot hamda san'at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o'tkazish; tanlovlardan, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman (shahar) miqyosidagi festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash; ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiy-madaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "O'zbekkino" Milliy agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Yoshlarda pedagogika va san'at uyg'unligi jozibasiga ma'naviy ehtiyojni shakllantirish o'zida mustahkam e'tiqod va badiiy qadriyatlar uyg'unligini mujassam qilgan shaxs tarbiyasining eng muhim omillaridan biridir. Yuqorida qayd qilingan holatlardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarida, konsertlarda, tasviriy san'at ustaxonalarida, teatr sahnalarida, badiiy to'garaklarida yoshlarni tarbiyalashni tadqiq etish dolzarb ehtiyojga aylandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Musiqa to'garaklarini tashkil etish", "Akterlik mahorati" kurslari va ma'naviy-



ma'rifiy ishlar mazmunini boyitishga, malaka oshirish kurslari, "Yoshlar markazlari" dasturlarini takomillashtirishga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini boyitishga, badiiy to'garaklarda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida "Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda" [2;45-b], degan dolzarb muammoni kun tartibiga qo'ydi.

San'atning boy g'oyaviy-tarbiyaviy imkoniyatlari barcha davrlarda yuksak baholanib kelingan. Bu haqda milliy pedagogikamiz tarixida muhim xulosalar mavjud. Ya'ni "San'at asarlarining ajib xususiyatlaridan biri - tomosha etguvchi va tinglaguvchilarning yuraklarida ruhiy bir lazzat va ajib bir to'lqin tug'dirmoq bo'lib, bu san'at asarlari uchun eng muhim bir xususiyat, eng muhim bir shart. Eng to'g'risi, bu, hatto, san'atning eng buyuk bir g'oyasidir. Bir san'at asari yuraklarda biror ajib to'lqin va ajib lazzat, ta'mli bir ta'sir tug'dirsa, miyada ham ajib bir qo'zg'alish yasasa. Bu asar haqiqiy bir san'at asari bo'lib sanalmoqqa tamom haqliq bo'ladir" [3;2].

Yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. "2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi" sohaga g'amxo'rlikni davlatimizning strategik vazifasiga aylantirdi. Zero, estetik niqob ortidagi g'oyaviy tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun "jaholatga qarshi ma'rifat" asosida faol g'oyaviy-estetik tarbiya bilan kurash olib borish mumkin. Bu ishda, avvalo, oqilona ishlab chiqilgan tizim-tartib bo'lishi lozim. Ahyon-ahyonda o'tkaziladigan, biri-biri bilan bog'lanmagan tadbirlar tashkil qilish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Demak, oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida g'oyaviy-estetik tarbiyani ilmiy asoslangan, pedagogik texnologiya asosida qurish, "ommaviy



madaniyat” ta’siriga qarshi mafkuraviy immunitetni ilmiy asosda shakllantirishda artpedagogika imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

Artpedagogika – yoshlarning qiziqishlari asosida tashkil etiladigan ta’lim tarbiya jarayoni bo‘lib, ular yoshlarning bo‘sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ma’naviy, g‘oyaviy-estetik, ilmiy dunyoqarashla-rini shakllantirish, yoshlarning o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratish, shuningdek tarbiya, targ‘ibot, tashviqot funksiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan, ixtiyoriy, baholanmaydigan mahsuldor (ijodiy) faoliyat shakli hisoblanadi.

Yosh shaxsini milliy g‘oya va milliy ma’naviyat asosida shakllantirish muammosining nazariy jihatlari serqirra va keng qamrovli jarayondir. Artpedagogik ta’lim va tarbiya tizimining maqsad va vazifalari yo‘naltirilgan obyekt yosh, ya’ni shaxsdir. Bunda yosh nafaqat bilim oluvchi yosh yigit-qiz, balki faol, vatanparvar fuqaro, intellektual va estetik sifatlar egasi, kreativ shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Artpedagogika o‘z oldiga yoshlarda mustaqil badiiy, estetik munosabat, milliy san’atimizga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish; “ommaviy madaniyat”ning asl maqsad-mohiyatini tushuntirish; yoshlarni yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi san’at namunalaridan himoya qilish; milliy g‘oya ideallari asosida yashash va ishlashga o‘rgatish; O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta yo‘nalishga asoslangan Harakatlar strategiyasi mohiyatini uqtirish; milliy urf-odatlarimiz va an’analaramizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma’naviyat va ma’rifatga doir ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish; ustozlarga hurmat, ularni e’zozlash, barcha jabhalarda yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e’zozli munosabatini tarbiyalashni san’at vositalaridan foydalangan holda amalga oshirish abi vazifalar yuklatilgan. Qisqa qilib aytganda, artpedagogika – yoshlarning estetik didi va g‘oyaviy ideallarini mujassamlashtirish, bunyodkor g‘oyalar va san’atdagi go‘zallikni to‘g‘ri idrok qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir.

Yoshlar “ommaviy madaniyat” yo‘naltirilgan asosiy ijtimoiy segmentdir. Shu bois yoshlarimiz va milliy-badiiy estetik qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan ushbu



muammoga tadqiqotimizda alohida e'tibor qaratildi. "Ommaviy madaniyat" iborasining keng tarqala boshlashi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. "Ommaviy madaniyat" an'anaviy madaniyatning ma'lum yo'nalishi sifatida emas, balki madaniyatdagi sifat o'zgarishi, texnologik rivojlanishi taqozosi asosida yuz berdi. Ommaviy axborot va kommunikasiya vositalarining keskin rivojlanib, ma'naviy mahsulotlarni industrial tijorat tarzida ishlab chiqarish va tarqatish rivojlandi. Buning natijasida, aholining bilim darajasi o'sishi bilan birga uning badiiy ehtiyojlarida pasayish jarayoni kuzatila boshladi.

"Ommaviy madaniyat" hozir insoniyat hayotining barcha jahbalariga tez kirib bormoqda va o'zi uchun qulay g'oyaviy-estetik makonni shakllantirmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, "ommaviy madaniyat" "yoshlar submadaniyati" industriyasi; ommaviy ijtimoiy mifologiya; odamga murakkab qadriyatlar yo'nalishi tizimini joylashtirish; dunyonи ko'p qirrali tushunishini oddiylashtirish; hordiq industriyasi, turli shoulni, qiziqish va dam olishni sanoat asosiga ko'chirish; sog'lomlashtirish; madaniy, estetik ehtiyojlar qondirishni boshqarish va individual, shuningdek, jamoa foydalanadigan xizmatlar, takliflarni rag'batlantirish tizimini tashkil etish (reklama, imidjmeykerlik va hokazo), har xil o'yinlar, mexanik o'yinlardan tortib, elektron, kompyuter va boshqa vositalardan foydalanish kabi yo'nalishlarga ega [4;138-b].

Hozirgi zamon madaniyatshunosligida "ommaviy madaniyat"ning uchta asosiy darajasi kitch – madaniyat (past darajadagi, vulgar madaniyat), mid – madaniyat ("o'rtamiyona" madaniyat) va art – madaniyat (ma'lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega madaniyat) shaklida tasniflanadi.

Aholining badiiy didi yuksak bo'limgan toifalarining talablarini qondirish va shakllantirish maqsadida ommaviy badiiy adabiyot (fantastika, sarguzasht, bulvar adabiyoti, "ayollar" romani) dunyoga keldi. Shuningdek, arzon-garov, jangari, triller, melodrama va boshqa filmlar hamda musiqa g'oyasi odamlarda ommaviy munosabatlarni qaror toptirish ekanligi kuzatiladi.

P.Byukenen "G'arbning o'limi" nomli kitobida shunday deydi: "Gedonistik qo'shiqlarni kim to'xtatadi? Bunday jozibali o'lim qo'shig'ini yoshlarga qarab



hamma – Gollivud, MTV, “ko‘pik operalar”, teleko‘rsatuvarlar, glamur jurnallar, shou biznes, ayollarning ishqiy g‘iybatlari, mish-mishlari, bestsellerlar kuylayotir. O‘qituvchidan tortib dindorgacha, hamma yoshlarga “kondom” tutqazayotir... Bu qismat “ommaviy madaniyat” kasofatidan bo‘ldi. Chunki, “ommaviy madaniyat o‘z qadriyatlari iyerarxiyasida shahvoniy hirsni onalik baxtidan yuqori qo‘yadi. Ayollar jurnallari, “ko‘pik operalar”, ayollarning ishqiy romanlari, praym-taym teleko‘rsatuvarlar, hammasida karyera, seks, yosh va yolg‘iz juvonning mustaqilligi sharaflanadi”[5;68-b].

Internet tizimi orqali ommaviy madaniyat mahsulotlari mamlakatimizga kirib kelmoqda va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng tarqalmoqda. Natijada, qadimiy, betakror milliy madaniyat va san’at makonida yoshlarning g‘oyaviy-estetik dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kontent hajmi va turlari ko‘payib bormoqda. Bu esa yoshlarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalash oldiga muhim va yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Yoshlarda his-tuyg‘u madaniyatini, obrazli va abstrakt badiiy tafakkurni, tasavvurni o‘stirishda tasviriy san’atning ahamiyati beqiyosdir. Tasviriy san’at asarlari inson hayotini va tabiatni bilishda yordam beradi. U nafaqat ko‘rinadigan narsalarni idrok qilishda, balki ijodkorlikni rivojlantirishda ham alohida qimmatga ega. Rasm va haykallarda voqyealar zanjirining bir oni, bir bo‘lagi tasvirlangan bo‘lsa-da, yosh ularda aks ettirilgan voqyealar, xarakterlar va obrazlarni harakatda ko‘ra oladi.

Musiqa – tovushlarda ochiladigan his-tuyg‘ular majmuyi sifatida yoshlarning badiiy-estetik qarashlariga ta’sir etish kuchiga ko‘ra yetakchi o‘rinni egallaydi.

Adabiyot – ifoda vositasi sifatida yanada qudratli badiiy-estetik ta’sir – so‘z kuchiga ega. Badiiy asarlarda ifodalangan obrazlar yoshlarning ma’naviy nafosatini, bunyodkor g‘oyalar go‘zalligini anglashga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda professional va havaskor badiiy jamoalar turli korxona va tashkilotlar, mahalla va turar joylardagi singari oliy, o‘rta maxsus va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida ham keng faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda yoshlar o‘zlarining



badiiy, estetik ehtiyojlarini qondirish bilan bir vaqtda, har tomonlama rivojlangan komil inson sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z iqtidorlarini ro‘yobga chiqarmoqda. Zero, “professional san’at ham, havaskorlik san’ati ham kishilarni tarbiyalashda umumiy maqsad va vazifalarga ega. Chunki san’at kishilarning quvonch va hayajonlari, ehtiroslarining manbai sifatida ularning hissiyoti, fikri, irodasini ifoda etib, shaxsni ma’naviy va g‘oyaviy boyitishga xizmat qiladi” [6;102-b].

Turli badiiy faoliyat va tadbirlarda qatnashish yoshlarni badiiy tasavvur qilinayotgan holatlarda harakat qilishga, yangiliklar yaratishga undaydi, ularning ijodiy kuch-quvvatini yuzaga chiqaradi, estetik taassurotlarini uyg‘otadi. Yoshlar, ayniqsa, badiiy faoliyat jarayonida badiiy obrazlar yaratish bilan bevosita bog‘langan adabiyot, musiqa sahma asarlaridagi go‘zallikni yaxshi his qiladilar.

Artpedagogika yoshlarni tarbiyalashda ta’lim berish, badiiy kommunikasiya, badiiy ijtimoiylashtirish, o‘z iqtidorini namoyon qilish, rivojlantirish, qiziqtirish, tarbiyalash kabi funksional imkoniyatlarga ega. Artpedagogika “ommaviy madaniyat” tahdidini yoshlarga tushuntirish va ularda “ommaviy madaniyat”ning buzg‘unchi ta’siriga qarshi g‘oyaviy-estetik immunitetni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega. Badiiy faoliyatga pedagogik texnologiya komponentlarining joriy qilinishi natijasida yoshlar uchun qiziqarli mavzular: taniqli san’atkorlar, ularning biografiyasi, mashhur qo‘shiqlari, gastrollari, asarlari tarixi, hayotda sodir bo‘lgan qiziq voqyealar, yangi qo‘shiqlar, “ommaviy madaniyat” mahsulotlarini muhokama qilish va o‘z munosabatini shakllantirish imkoniyatlarini beradi. Bunda har bir yoshyigit qiz muhokama qilinayotgan spektakl, qo‘shiq, kuy, remiks, rep, myuzikl, kliplar, kinofilmlar, milliy estrada yangiliklari, jahon musiqasi, estrada, teatr san’ati yangiliklariga munosabat bildirish metodlaridan foydalanadi. Bunda yoshlarga asarning: kontent tahlili, musiqiy tahlili, ijroviy tahlilini amalga oshirish vazifasi qo‘yiladi.

Artpedagogika uzluksiz ta’lim tizimida Besh muhim tashabbus doirasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning texnologik segmenti hisoblanadi. Badiiy faoliyatni rejalaشتirish, o‘quv-pedagogik jarayonni olib borish, to‘garaklar ishlarini yuritish



bilan bog‘liq ishlar joriy me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Bu hujjatlar to‘garaklarda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarini sifat jihatidan tavsiflab beruvchi va tartibga soluvchi omildir. Badiiy to‘garaklar faoliyatini o‘rganish jarayonida yoshlardan g‘oyaviy-estetik tarbiyasi bilan bog‘liq ayrim tashkiliy-pedagogik me’yoriy hujjatlar, normativ hujjatlarda yagona yondashuvning yetishmasligi aniqlandi. Bu holatlar, jumladan, to‘garak rahbarlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishdagi har xilliklar badiiy to‘garaklar mashg‘ulotlarini metodik ta’minalashga xalaqit berib, mashg‘ulotlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ana shu ilmiy-uslubiy muammoni hal qilish maqsadida badiiy to‘garaklar tajribasining o‘quv-uslubiy manbalari takomillashtirildi.

Badiiy faoliyatdayoshchlarni tarbiyalash jarayoniga targ‘ibot-tashviqot jarayonini badiiy pedagogik asosda qurish, g‘oyaviy-estetik dalillarni sistemalashtirish, g‘oyaviy-estetik bilimni hayot bilan bog‘lash, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish, to‘garaklar tarbiyaviy ish tizimiga targ‘ibot usullarini kiritish, ularni “ommaviy madaniyat”ning mohiyati, oqibatlari bilan tanishtirish, g‘oyaviy-estetik tarbiyaning uzlucksizligini ta’minalash, yosh yoshlarga salbiy g‘oyaviy-estetik ta’sir etayotgan omillarni ko‘rsatish kabi metodikalar kiritildi.

Besh muhim tashabbus doirasida badiiy faoliyatda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishga texnologik yondashuv xarakteri san’at turlarining xususiyatlaridan kelib chiqishi talab etiladi. Shu sababli ushbu masalani hal qilishda hozirgi davrda amalda bo‘lgan, qo‘llanilishiga, qamrov hajmiga ko‘ra umumiyy pedagogik, xususiy pedagogik va modulli kichik universal texnologiyalar tasniflaridan kelib chiqib yondashildi. Ya’ni umumiyy pedagogik texnologiyalar o‘z ichiga yirik, ya’ni butun ta’lim tizimiga tegishli bo‘lgan masalalarni qamrab olishi, xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma’lum fan doirasida qo‘llanilishi inobatga olindi.

Badiiy to‘garaklar xususiyatidan kelib chiqib, suggestiv modulli kichik universal texnologik yondashuv tanlandi. Ma’lumki, ushbu yo‘nalishdagi texnologiyalar tarbiyalanuvchilarda refleksiyani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, qamrov va mazmun jihatlaridan pedagogika va san’at uyg‘unligini ta’minalash mumkin bo‘lgan texnologiyadir.



Artpedagogika suggestiv modulli kichik universal texnologiya sifatida yoshlar tarbiyasida Ustoz-shogird munosabatlariga ham tayanadi. Mazkur texnologiya o‘zining artpedagogik, ya’ni badiiy emotsiyal, yorqin taassurot, inontirish, qiziqtirishga yo‘naltirilganligi, talaffuz, mimikadan foydalanish, his–tuyg‘ularni uyg‘otishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunda har bir yangi mavzuni o‘zlashtirishda obrazlardan foydalanish, hissiyotlarni uyg‘otish va har bir havaskor yosh ana shu hislarni sezishini ta’minlashga e’tibor beriladi. Yuqoridagi nazariy va uslubiy tahlillar natijalaridan kelib chiqib, yoshlar tarbiyasida artpedagogikaning yoshlar taarbiyasidagi funksional modelini suggestiv modulli universal texnologiya sifatida quyidagicha ifodalash mumkin.

Artpedagogik jarayonga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish bugungi kunda samaralidir. Ushbu maqsadda smartfonlar uchun krossplatformali Telegram messenjerida badiiy faoliyat subyektlarining muloqot kanali joriy etildi. Unda yoshlarning badiiy, estetik va g‘oyaviy qarashlarini virtual rivojlantirish o‘rganib borildi. Badiiy faoliyat mazmuni milliy g‘oya ruhi bilan boyitib borish vazifasi amalga oshirildi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

1. Yoshlarni bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam xabardor qilish, jahonda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqyea-hodisalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimizni chuqur anglash va himoya qilish, shu aziz Vatan uchun, uning buguni va ertasi uchun daxldorlik va mas’ullik tuyg‘usini yanada kuchaytirishda san’at va pedagogika uyg‘unligiga erishish artpedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir.

2. Milliy g‘oya va milliy estetik ideallar uyg‘unligisiz shaxsning g‘oyaviy va estetik taraqqiyoti mushtarakligiga va komil shaxsning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi. Badiiy faoliyatda kechuvchi pedagogik jarayonlar yoshlarning badiiy-estetik qadriyat va hodisalarini baholash va ifoda qilish, ularga faol munosabat bildirish malakalarini shakllantirish imkonini beradi.



3. Artpedagogik tarbiyaviy texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari badiiy faoliyatning boy pedagogik imkoniyatlarga egaligini ko‘rsatib, oliv ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy tadbirlar, bayramlarda yoshlarning g‘oyaviy-estetik tarbiyaning subyektlari sifatidagi chiqishlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

4. Badiiy faoliyatda amalga oshiriladigan artpedagogik jarayon muayyan texnologik tamoyillarga tayangandagina o‘z samarasini beradi. Ushbu tamoyillar sirasiga milliy mafkuraviy yo‘naltirilganlik, ta’lim va tarbiya birligi, hayotiylik, yaxlitlik, ong va xulq-atvor birligi; amaliylik, ommaviylik, yoshlar tashabbusini rag‘batlantirish, ijodiy hamkorlik, o‘zaro hurmat, bir-birini rag‘batlantirish, “ommaviy madaniyat” ta’siriga qarshi ma’rifiy kurash, uzviylik, g‘oyaviy va badiiy tarbiya omillari ta’sirining muvofiqlashganligi kabilar kiradi.

5. Yoshlarning badiiy faoliyati ma’naviy ma’rifiy ishlar, milliy g‘oya targ‘iboti bilan uzviy aloqada olib borilsa, yoshlarning g‘oyaviy-estetik qadriyatlarni chuqr tushunishi va his qilishi, ularning mohiyatini anglashda yorqin kechinmalarga ega bo‘lishlariga va bu kechinmalarning shaxsiy ijtimoiy faollik bilan bog‘lanishiga erishiladi.

6. Badiiy faoliyatning izchilligi, ketma-ketligi, sistemaliligi va uzlucksizligi tamoyilini amalga oshirish to‘garak rahbarlaridan tarbiya texnologiyasi sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi. Bunda yoshlarning mavjud g‘oyaviy-estetik bilim, ko‘nikma va malakalariga, hayotiy tajribasi va qobiliyatlariga tayanish juda muhimdir.

7. Badiiy faoliyatning artpedagogik texnologiyalarini takomillashtirishda ta’lim muassasasining ma’naviy muhiti, Ustoz va shogirdlarning ijodiy hamkorligi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmuni, usul va vositalari, shuningdek hududdagi badiiy an’analar, madaniy qadriyatlar kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar tarbiyasini artpedagogik takomillashtirishda quyidagi pedagogik tavsiyalarga amal qilish o‘z samarasini beradi:



- har bir san'at turi, badiiy faoliyatning yo'naliш, mazmunidan kelib chiqqan holda uning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyatlarini kompleks hal etishga erishish lozim;
- badiiy faoliyat mashg'ulotlarining badiiy tarbiyaviy samaradorligini oshirishda jamoa ichida ijodiy-ma'naviy muhitni rag'batlantirish va yoshlarning kreativ yondashishlari uchun sharoit yaratilishi zarur;
- badiiy faoliyat mazmuniga milliy g'oya ruhini singdirish, mashg'ulotlar mazmunini belgilashda sharq mutafakkirlari merosi, pandnomalari adabiyot va san'at, tarixiy, ilmiy, diniy qadriyat, an'ana va urf-odatlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar1-jild. Toshkent: O'zbekiston NMU, 2017, 45-b.
3. Abdurahmon Sa'diy. Go'zal san'at dunyosida / Inqilob, 1922 yil, 2-son.
4. Флиер А.Я. Массовая культура и её социальные функции. // ОНС: Общественные науки и современность. – М., 1998. - №6. – С. 138.
5. Бьюкенен П. Дж. Смерть Запада. Пер. с англ. А. Башкирова. –М.: ООО "Издательство ACT; СПб.: Terra Fantastica, 2003. -444с. 68-б.
6. Toshmatov O'. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. /Respublika metodika va axborot markazi. –T.: 2006. -102 b.